

---

Kasbning yomoni bo'lmaydi





Joriy yilning 3- mart kuni GIM fakulteti yoshlar bilan ishlash bo`yicha dekan o`rinbosari O.Ro`zibayev tashabbusi bilan 101-guruh talaba yoshlari va GIM fakulteti tyutori I.Ahmedovalar bilan universitet psixologi M.K. Muxamedova "Kasbim - mening faxrim" mavzusida tadbir o'tkazdi. Tadbir "Do'stimni tanishtiraman" trening mashg'uloti bilan boshlandi. Tadbir davomida talabalarning o'qishga nisbatan qiziqishlarini aniqlashtirishga mo'ljallangan "Kelajakdan maktub", "Men qanday insonman", "Men o'z nazdimda", "Men o'zgalar nazdida" kabi trening mashg'ulotlari bilan davom

ettirildi. Uchrashuv so'ngida "Xatoning qiymati" deb nomlangan rivoyat aytili va muhokama qilindi. Tadbirda barcha talaba yoshlar faol qatnashishdi va shu kabi uchrashuvlar ko'proq uyushtirilishi haqida takliflar berishdi.

